



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
O‘ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISH JAMG‘ARMASI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI DAVLAT
TILIDA ISH YURITISH ASOSLARINI O‘QITISH VA MALAKA OSHIRISH
MARKAZI**

“DAVLAT TILI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025**

UO‘K: 494.375

KBK: 81.633.1

D 26

Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar [Matn]: to‘plam / Sh.Sirojiddinov.
– Toshkent: Bookmany print, 2025. – 450 b.

Mazkur to‘plam “Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar” mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumaniga tilshunos olimlar, vazirlik, idoralar, mahalliy ijro etuvchi organlarning davlat tili bo‘yicha maslahatchilari hamda tadqiqotchilar tomonidan yuborilgan materiallardan tashkil topgan. Undagi maqolalarda davlat tilining dolzarb muammolari, ularni hal qilish bo‘yicha takliflar, yechimlar berilgan. To‘plam tilshunoslar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, magistrlar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

(Maqolalarning ilmiy saviyasiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar).

Mas’ul muharrir:

Sh.Sirojiddinov, filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

I.Azimov, filologiya fanlari doktori, professor

A.Eminov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

B.Jo‘rayeva, filologiya fanlari doktori, professor

M.Abdiyev, filologiya fanlari doktori, professor

F.Bobojonov, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Saparniyozova, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Hakimova, filologiya fanlari doktori, professor

M.Umirzoqova, filologiya fanlari doktori, dotsent

H.Yodgorov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

H.Suyunov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

N.Quldashev, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Ilmiy-metodik kengashida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-06-774-7

© “Bookmany print” nashriyoti, 2025.

“DEVONU LUG‘ATI-T-TURK” ASARIDA IFODALANGAN RANG ATAMALARINING QIYOSIY TADQIQI

Zokir BOYNAZAROV *

Annotatsiya

Mazkur maqolada XI asr olimi Mahmud Koshg‘ariy yaratgan “Devonu lug‘ati-t-turk” asarida qayd etilgan rang nomlari lingvistik va lingvomadaniy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda qiyosiy-tarixiy va lingvokulturologik metodlardan foydalanilib, qadimgi rang atamaları zamonaviy turkiy hamda o‘zbek tillaridagi ekvivalentlari bilan qiyoslandi. Natijalarda ranglarning fonetik, morfologik va semantik o‘zgarishlari aniqlanib, ayrimlari saqlanib qolganligi, boshqalari esa yo‘qolib ketgani ko‘rsatildi. Shuningdek, ranglarning ramziy ma‘nolari, mifologik va madaniy mazmuni ochib berildi. Maqola ranglarning turkiy tillar va o‘zbek lingvomadaniyatidagi o‘rni hamda tarixiy jarayondagi barqarorligi, inson konseptual manzarasida aks etgan rang turlarini “nomlash”, lisoniy “bo‘shliq”larni tarixiy manbalar hamda sheva materiallari asosida “to‘ldirish” haqida muhim xulosalar beradi.

Kalit so‘zlar: rang, rang nomlari, rang konsepti, Devonu lug‘ati-t-turk, lisoniy bo‘shliq, lingvokulturologiyada rang, rang turlari, ramziy ma‘no, madaniy mazmun, olamning lisoniy manzarasi va ranglar.

Comparative Study of Color Terms Expressed in “Devonu Lug‘ati-t-Turk”

Abstract

This article analyzes the color names recorded in the 11th-century work *Devonu lug‘ati-t-turk* by the scholar Mahmud al-Kashgari from linguistic and linguo-cultural perspectives. The research employs comparative-historical and linguo-cultural methods, comparing ancient color terms with their equivalents in modern Turkic and Uzbek languages. The results identify phonetic, morphological, and semantic changes in color terms, showing that some have been preserved while others have disappeared. In addition, the symbolic meanings, mythological, and cultural content of the colors are revealed. The article provides important conclusions regarding the role of colors in Turkic languages and Uzbek linguo-culture, the stability of these terms in historical processes, and the reflection of color types in the human conceptual worldview. It also discusses the “naming” of colors, as well as the “filling” of linguistic “gaps” based on historical sources and dialectal materials.

* Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent. Samarqand davlat universiteti. Zmbaynazarov81@gmail.com

Keywords: color, color names, color concept, *Devonu lug‘ati-t-turk*, linguistic gaps, colors in linguo-culturology, types of colors, symbolic meaning, cultural content, linguistic worldview and colors.

Kirish. Rang tushunchasi insoniyat tafakkuri, madaniyati va kundalik hayotida alohida ahamiyat kasb etadi. Insoniyat tarixining eng qadimiy bosqichlaridan boshlab ranglar atrof-muhitni anglash, borliqni tasniflash hamda ma’naviy qadriyatlarni ifodalashda asosiy vositalardan biri sifatida qo‘llanilgan. Ranglar orqali inson o‘z his-tuyg‘ularini, ijtimoiy mavqeini, diniy e’tiqodini va estetik qarashlarini namoyon qilgan. Turkiy xalqlarning tarixiy taraqqiyoti jarayonida rang atamalarining ramziy va majoziy ma’nolari alohida ahamiyat kasb etgan bo‘lib, ular xalq og‘zaki ijodi, diniy marosimlar, afsonalar va yozma manbalarda keng qo‘llanilgan. XI asr olimi Mahmud Koshg‘ariy tomonidan yozilgan “*Devonu lug‘ati-t-turk*” asari turkiy tillarning eng muhim va qadimiy lug‘at manbalaridan biri bo‘lib, unda turkiy xalqlarning leksik boyligi, jumladan, rang nomlari ham mukammal tarzda qayd etilgan. Ranglarning lug‘at tarkibidagi o‘rni ularning nafaqat kundalik hayotda, balki madaniy, diniy va ijtimoiy qarashlarda ham muhim ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi. Mazkur maqolada “*Devonu lug‘ati-t-turk*” dagi rang nomlari Sibir turkiy tillari – oltoy, hakas va tuva, shuningdek, zamonaviy o‘zbek tillaridagi ekvivalentlari bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Maqolaning asosiy maqsadi qadimgi turkiy rang atamalarining zamonaviy turkiy tillardagi saqlanish darajasi, fonetik, morfologik va semantik o‘zgarishlarni ko‘rsatish, shuningdek, ranglarning lingvokulturologik ahamiyatini, rang konseptining o‘zbek lingvomadaniyatida tutgan o‘rni va ahamiyatini yoritishdan iboratdir.

Metodlar. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tarixiy va lingvokulturologik metodlardan keng foydalanildi. Birinchi navbatda, Mahmud Koshg‘ariyning “*Devonu lug‘ati-t-turk*” asarida qayd etilgan rang nomlari aniqlab chiqildi. Shundan so‘ng, mazkur birliklar oltoy, hakas, tuva va o‘zbek tillarining zamonaviy lug‘atlari, grammatik tavsiflari va badiiy matn korpuslari bilan qiyoslandi. Fonetik tahlil jarayonida tovush o‘zgarishlari, masalan, qadimgi turkiy *q/k. k/x, x/h, g/g‘ (ɣ)* va shu kabi almashuvlar kuzatildi. Morfologik tahlil rang nomlarining qo‘shimchalar tizimidagi o‘zgarishlarga e’tibor qaratdi. Misol uchun, rangning darajasini ifodalaydigan *och, to‘q, tim-, yorqin, sal, -roq* va takrorlanish yuzasidan hosil bo‘ladigan *qip-qizil, yam-yashil, bem-beyaz* kabi holatlar davr va tillararo farqlanishlari inobatga olindi. Semantik tahlil ranglarning lug‘aviy va ramziy ma’nolarini ochib berdi. Bundan tashqari, etnolingvistik yondashuv asosida ranglarning xalq dunyoqarashi, madaniy urf-odatlar va diniy qarashlardagi o‘rni ham ko‘rib chiqildi. Tahlil jarayonida tarixiy misollar, qadimgi yozma manbalardagi

qo‘llanish namunalari hamda zamonaviy matnlardan misollar jalb qilindi. Natijalarni yanada aniqroq ko‘rsatish uchun qiyosiy jadvallar tuzildi.

Natijalar. 1. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘ati-t-turk” asarida qayd etilgan rang nomlari orasida asosiylari quyidagilardan iborat: *o‘q, bodug, ak, al, kok, sarig, qizil, yashil, kara, ürün, yagız, tü, yipgin/yipgil*. Ushbu ranglarning ko‘pchiligi turkiy tillarda saqlanib qolgan bo‘lsa-da, ba‘zilar tarixiy jarayonda yo‘qolib ketgan yoki boshqa tillardan olingan ekvivalentlar bilan almashgan. Masalan, “ak” (oq) so‘zi hakas tilida “ah”, oltoy va tuvada esa asliy shaklda “ak” tarzida ishlatilmoqda. “Qizil” so‘zi hakas tilida “hızıl” shaklida, oltoy va tuva tillarida esa qadimgi ko‘rinishini saqlagan. “Sarig” so‘zi oltoy tilida “sarı”, tuvada “sarig”, hakasda esa “sarig‘” shaklida qo‘llanadi. “Kara” (qora) so‘zi hakas tilida “hara”, oltoy va tuvada esa qadimgi shaklini asrab qolgan. “Yashil” esa turlicha fonetik ko‘rinishda ishlatiladi: oltoy tilida “çaşıl/caşıl”, tuvada “nogaa/nogaan”, hakasda “çazıl”. Shuningdek, qadimgi “ürün, yagız, bodug, yipgin/yipgil” kabi rang nomlari zamonaviy tillarda uchramaydi, ularning o‘rnini boshqa atamalar egallagan. Masalan, tuva tilidada “nogaan” (mongolcha kelib chiqishi) *yashil* ma’nosini bildiradi, “küreñ” esa *jigarrangni* anglatadi [Çürük, 2017, 218].

DLTdagi rang nomi	O‘zbek tilida	Oltoy tili	Hakas tili	Tuva tili
ak	oq	Ak	ah	ak
qizil	qizil	Qizil	hızıl	qizil
sarig	sariq	Sarı	sarig‘	sarig
kara	qora	Kara	hara	kara
yashil	yashil	çaşıl/caşıl	çazıl	nogaa/nogaan
ko‘k	ko‘k (yashil+moviy)	Kök	xök	kök
ürün	oq, yorqin	-	-	-
yagız	qop-qora, qoramtir	-	-	-
bodug	to‘q rang	-	-	-
yipgin/yipgil	och rang	-	-	-
al	qizil, ol	Al	al	al
tü	to‘q, jigarrang	-	-	-

2. Mahmud Koshg‘ariyning Devonida ifodalangan rang atamaları boshqa turkiy tillarda bo‘lgani kabi zamonaviy o‘zbek tilida ham ayrim fonetik, morfemik va semantik farqliliklar bilan qo‘llaniladi. O‘zbek lingvomadaniyati rang konseptida asliy rang-tus bildiruvchi *oq, qora, yashil, ko‘k, sariq, qizil*, shuningdek, *binafsha*,

kulrang, jigarrang kabi atamalar mavjud. Boshqa turkiy tillar kabi *ürün, yagız, bodug, yipgin/yipgil* kabi atamalar hozirgi kunda ishlatilmaydi. Ayrimlari, jumladan, *ürün-urung, yayız-yag‘iz* kabi atamalar bugungi kunda kumushrang, to‘q, bug‘doyrang shakllarida ifodalanadi. Shu o‘rinda ta‘kidlash lozimki, DLTdan qariyb uch asr oldin yaratilgan bitigtosh matnlarida 11 rang nomi qo‘llanilgan bo‘lib, ular tarkibida ham zamonaviy turkiy tillarda foydalanmaydigan nomlar bor. Jumladan: *torug, yägrän, boz* kabi rang atamalari hozir qo‘llanilmaydi. Aslida, tabiatda ranglar yo‘qolib ketmaydi va o‘zgarmaydi. Ularni atashga qo‘llanilgan nomlarga morfologik qiyofasini o‘zgartiradi, xolos. Bitigtoshlarda qo‘llanilgan *torug* nomi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “Qora qizil, to‘q jiyron ot” deya sharhlangan, bo‘lib, rang sifatida emas, “To‘riq rangdagi ot” mazmunini ifodalab kelishi qayd etib o‘tilgan [*O‘TIL*, 245]. Shuningdek, *yäyrän – yag‘ran* atamasi ayrim manbalarda *kashtan, jigarrang, qahvarangni* ifoda etishi qayd etilgan bo‘lib, *qizil jigarrang* mazmunini beradi. Kashtan daraxti mevasi, jigar yoki qahvaning rangidan kelib chiqqan. Bu rangga nisbatan ingliz tilida birinchi marta “kashtan” rang bildiruvchi atama sifatida 1555-yilda ishlatila boshlagan [*Frederic, 1994, 197*]. Fransuzlar “marron”, hindlar “maroon” deb nomlagan va asosiy ranglar sifatida qo‘llaydi [*wikipediya*]. Bundan tashqari, fonetik “qiyofasi”ni ham o‘zgartirgan rang-tuz atamalari ham majdud. Masalan, sariq atamasi sari, sarig, sariq, sori fonetik shakllar tilimiz va uning shevalarida, boshqa turkiy tillarda ifodalanib kelinadi.

Muhokama. Olingan natijalar rang nomlarining turkiy tillarda juda qadimiy va barqaror qatlamni tashkil etishini ko‘rsatadi. XI asrdan buyon ko‘plab rang nomlari turli fonetik o‘zgarishlarga qaramay saqlanib qolgan. Masalan, qadimgi turkiy “ak” so‘zi barcha Janubiy Sibir tillarida mavjud, faqat talaffuzdagi farqlar bilan ajralib turadi. “Qizil” so‘zi ham umumturkiy bo‘lib, Hakas tilida “h” tovushi orttirilgan holda qo‘llanadi. Semantik siljishlar ham kuzatilgan: qadimgi “ko‘k” so‘zi bir vaqtning o‘zida “yashil” va “moviy” ranglarni bildirgan, bugungi kunda esa ko‘plab turkiy tillarda bu ikki rang alohida farqlanadi. Bu hodisa turkiy xalqlarning tabiatga bo‘lgan qarashlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Ranglarning ramziy ma‘nolari qadimgi turkiy mifologiyada ham, zamonaviy turkiy tillarda ham saqlanib qolgan. Masalan, oq rang poklik, tozalik va ezgulik ramzi, qora rang motam, g‘am va sirli kuchlar bilan bog‘langan. Qizil rang esa hayot, qon va energiya ramzi sifatida qo‘llangan. Bundan tashqari, Janubiy Sibir tillaridagi mongolcha unsurlar turkiy tillarning tarixiy aloqa va qo‘shnichilik jarayonlaridan dalolat beradi. Tuva tilidagi “nogaa” va “küreñ” kabi birliklar bunga yaqqol misoldir [*Karadoğan, 2002, 92*]. Demak, rang nomlari nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik va tarixiy tilshunoslikda ham muhim o‘rin tutadi. Ular orqali xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari va tarixiy aloqalari namoyon bo‘ladi.

Aslida bu rang-barang dunyoning har bir tusiga nom topishning imkoni eng rivojlangan tillarda ham mavjud emas. Y.Vaysgerberning soʻzlari bilan aytganda: onati barcha til egalari uchun yaroqli vositalarni ishlab chiqish yoʻli bilan muloqot uchun zamin hozirlaydi. Dunyo haqidagi tasavvur va tafakkur tazi dilda doimo roʻy berib turadigan borliqni aks ettirish, mazkur til jamoasida ushbu tilning oʻzi uchun maxsus vositalar bilan dunyoni bilish jarayonlari mahsulidir [Vaysgerber, 111-112]. Lisoniy birlikning birinchi atributsiyasi boʻlmish fonetik-akustik tuzilma (soʻzning fonetik qobigʻi) faqat oʻsha tilning vositalari (tovushlari) va qoidalari yordamida ifodalanishi zarur, bu esa olamning lisoniy manzarasi unsure boʻlishning birlamchi sharti sanaladi. Shunday ekan, olamning konseptual manzarasidagi barcha kodlarni “oʻqiy” oladigan leksik birlik “oʻylab topish” murakkab jarayon. Maʼlumki, eng koʻp shaklda tuslanadigan rang qizildir. Kundalik faoliyatimizda foydalanadigan kompyuter yoki qoʻl telefon (zamonaviy smartfon) va uning kamerasi bu rangning 1200 dan ortiq turini farqlay oladi. Oʻzbek tilida esa, qizil, qirmizi atamalardan *qizilroq, och qizil, toʻq qizil, qizgʻish, qip-qizil* kabi turli Grammatik vositalar vositasida 10-12 shakl hosil qila olamiz. Ingliz, rus, arab, fors tillardagi imkoniyat deyarli shundan. Shunday ekan, tilimiz tabiiy imkonlaridan foydalangan holda uning ifoda maqsadlarini oshirib borishimiz lozim. Aslida imkonlar cheklanmasligi uchun avvalo milliy til shevalarida shuningdek, “Devonu lugʻati-t-turk” kabi tarixiy yozma manbalarida saqlanib qolgan til birliklarini tadqiq qilish va ular vositasida leksik “boʻshliqlar” ni toʻldirish lozim. Bunday manbalar yetarlicha topiladi. Shunda “yetishmay qolgan” soʻz va birliklarni boshqa tildan olib toʻldirishimizga hojat qolmaydi.

Xulosa qilib aytganda, Mahmud Koshgʻariyning “Devonu lugʻati-t-turk” asarida qayd etilgan rang nomlari turkiy tillarda, jumladan, oʻzbek adabiy tili va shevalarida muhim darajada saqlanib qolgan. Ularning ayrimlari fonetik oʻzgarishlarga uchragan, boshqalari esa butunlay yoʻqolib, yangi soʻzlar bilan almashgan. Yaʼniy, morfologik qiyofasini almashtirgan. Bu esa tilning doimiy oʻzgaruvchanligi va madaniyatlararo taʼsirini koʻrsatadi. Ranglarning til va madaniyatdagi oʻrni xalq dunyoqarashini, qadriyatlarini va estetik qarashlarini aks ettiradi. Shu bois ranglarni lingvistik va madaniy nuqtayi nazardan oʻrganish turkiyshunoslik uchun juda muhimdir. Kelgusida ranglarning poetik ifodadagi qoʻllanilishi, folklorda va diniy matnlarda namoyon boʻlishi, shuningdek, turkiy tillar oʻrtasidagi qiyosiy-semantik tahlili yanada kengroq olib borilishi lozim.

Rang-tusni anglatuvchi atamalarini somatizmlar guruhiga kiritish mumkin. Chunki, unson tana aʼzolarining nomlari, son bildiruvchi soʻzlar kabi rang nomlari ham tilning barqaror birliklari sanaladi. Ulardagi oʻzgarishlar faqat fonetik va morfologik plandagi oʻzgarishlar hisoblanadi. Tushuncha apparatida oʻzgarishlar, deyarli, sezilmaydi. Vaqt va makon ranglarning lingvomadaniy mazmuni va

qiyofasiga ta'sit o'tkazishi mumkin. Oq rang hamisha ham poklik, beg'uborlik ramzi bo'lmagan. "Oq podsho" – dushman timsoli. Turkiy xalqlarda qadimdan "qora" – buyuklik, ulug'vorlik ramzi bo'lgan. Ammo, uning ham zulmat, qorong'ilik timsollari mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar

Çürük, Y. (2017). *Türk dilinde renk adları ve renk adlarına gelen ekler*. Renk Kitabı.

https://tr.wikipedia.org/wiki/Kestane_rengi

Karadoğan, A. (2004). *Türk ad biliminde renk kültü*. Milli Folklor.

Mish, Frederic C. (1994). *Editor in Chief Webster's Tenth New Collegiate Dictionary* Springfield, Massachusetts, U.S.A.: -Merriam-Webster.

Вайсгербер Й.Л. (1993). *Язык и философия // Вопросы языкознания*.

Ўзбек тилининг изоҳли лугати. (2007). Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси.